

IIO XODIMLARIDA AGRESSIV HOLATLARNING PSIXOPROFILAKTIKASI

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
ofitseri, leytenant*

Abdullayev Madatbek Erkinboyevich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
3-o'quv kursi kursanti*

Yo'ldoshev Ilhom Abdujalil o'g'li

Annotatsiya: *Mazkur maqolada agressiya tushunchasi, unga psixolog olimlar tomonidan berilgan ta'riflar, uning namoyon bo'lish shakllari, IIO xodimlarining agressiv holatlarga tushishiga sabablar hamda ularni namoyon qiluvchi vaziyatlar haqida soz yuritiladi. Shuningdek, IIO xodimlarining agressiv holatlarni oldini olish ya'ni psixoprofilaktikasi bilan bog'liq ayrim tavsiyalar bayon etilgan.*

Kalit sozlar: *Agressiya, psixoprofilaktika, temperament, xarakter, stress, psixolog.*

Annotation: *In this article, the concept of aggression, the scientific definitions given to it by psychologist-scientists, the manifestations of aggression, the reason why police officers fall into aggressive situations are also situations that manifest them. Also, some recommendations related to the prevention of aggressive conditions of police officers i.e. psychoprophylaxis are described.*

Key words: *Aggression, psychoprophylaxis, temperament, character, stress, psychologist.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются понятие агрессии, научные определения, данные ей психологами-учеными, проявления агрессии, причины попадания сотрудников ОВД в агрессивные ситуации, а также ситуации, их проявляющие. Также изложены некоторые рекомендации, касающиеся профилактики агрессивных состояний персонала ОВД, то есть психопрофилактики.*

Ключивые слова: *Агрессия, психопрофилактика, темперамент, характер, стресс, психолог.*

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022-yil 28-yanvaridagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonining ijrosini ta'minlash, shuningdek, ichki ishlar organlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda, o'zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashni ta'minlash, mahallalar, aholi turar joylari va butun yurtimizda qonun ustuvorligini tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvaridagi "Ichki ishlar organlarining xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda

ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son Qarori imzolandi. Shuningdek, qarorning 2-ilovasi bilan ichki ishlar organlari organlarida kadrlar siyosatini amalga oshirish, ma'naviy-ma'rifiy va mukofotlash ishlarini tashkil etish, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shuningdek, ijtimoiy himoya jarayonlarini ta'minlaydigan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi markaziy apparatining mustaqil bo'linmasi sifatida Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti bo'lib hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, ushbu departament har bir ichki ishlar organlari xodimlarini psixologik jihatdan sog'lom bo'lib shakllanishini ta'minlash, ularning ma'naviy-ruhiy holatini nazorat qilish bog'liq quyidagi vazifalarni ham amalga oshiradi:

ichki ishlar organlarida shaxsiy tarkibning xizmat, jangovar, jismoniy va psixologik tayyorgarligini ta'minlash, tizimda musobaqalarni o'tkazish orqali xodimlar va ularning oila a'zolarida sportga bo'lgan qiziqishni oshirish;

ichki ishlar organlarining shaxsiy tarkibi bilan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy va psixologik ishlarni tashkil etish va amalga oshirish;

shaxsiy tarkib o'rtasida yuksak vatanparvarlik ruhidagi muhitni shakllantirish, ularning ruhiy-psixologik tayyorgarligini ta'minlash va muvofiqlashtirish;

ichki ishlar organlarida ma'naviy-ruhiy muhitni muntazam ravishda o'rganish va monitoringini olib borish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash va boshqalar .

Ammo, afsuski ko'p hollarda ichki ishlar organlari xodimlarining fuqarolar bilan bo'layotgan muloqat jarayonida stressga chidamliligi yo'qligi hamda agressiv holatga tushishga moyilligi sabab, jahldor holatga tushishi hamda tajovuzkorona munosabatda bo'lishi natijasida ayrim fuqarolar bilan kelishmovchilik va janjallarni vujudga kelishining yaqqol isboti sifatida ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan videolar deb bilishimiz mumkin. Shu sababdan ichki ishlar organlarini agressiv holatga tushishiga qanday sabablar borligini hamda ularni oldini olish choralarini o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Agressiya (lat. aggressiō-hujum) – ijtimoiy hayot me'yorlariga zid bo'lgan, jamiyatdagi yurish-turish qoidalariga shuningdek, hujum ob'ektlariga zarar yetkazadigan, odamlarga jismoniy, ma'naviy zarar yetkazadigan yoki ularga psixologik noqulaylik tug'diradigan buzg'unchi xatti-harakatlar jamlanmasi .

Insonlardagi shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'luvchi xulq-atvor tiplaridan biri agressiyadir. "Agressiya" tushunchasiga izoh berish qator qiyinchiliklarni tug'diradi, chunki bu atama ko'plab xatti-harakat shakllarini ifodalaydi. Odamlar biron kimsani agressiv shaxs sifatida tavsiflaganlarida, uni boshqalarni haqorat qiluvchi yoki badfe'l, barcha narsani o'zi istaganidek qilishni istaydigan yoki o'z g'oyalarini qat'iy himoya qiladigan, yechimi yo'q muammolar girdobiga o'zini giriftor qiladigan inson kabi ta'riflarni keltirishlari mumkin.

Insonning agressiv xatti-harakatlarga moyilligini turlicha tushuntirishga qaratilgan dastlabki nuqtai nazarlar ichida U. Makdaugoll, Z.Freyd, G.Marrey va boshqa olimlarning «Inson va hayvonlarda agressiyaning tug'ma instinkti mavjud bo'ladi», degan qarashlaridir.

Agressiv xulq-atvor haqidagi fikr-mulohazalar XX asrning boshlarida frustratsiya nazariyasi bilan bog'liq ravishda yuzaga keldi. Unga ko'ra, agressivlik frustratsiyaning oqibatidir.

Bunday qarashni birinchi bo'lib J. Dollard ilgari surdi. Ammo, ushbu ikki xil nuqtai nazar ham amaliyotda o'z tasdig'ini topmadi.

Agressiv xulq-atvor xususidagi yana bir nuqtai nazar L.Berkovichning ijtimoiy bilish nazariyasida bayon qilingan. Unga ko'ra, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan to'siq shaxsda agressiv xatti-harakatlarni hosil qiladi. Nihoyat, agressiv xulq-atvorning kelib chiqish sabablari haqidagi eng zamonaviy nuqtai nazar bilishning kognitiv nazariyasi bilan bog'liq holda ifodalanadi. Bu konsepsiyada agressiv harakatlar quyidagi jarayonlarning natijalari sifatida baholanadi:

- 1.Sub'yektning o'z agressiv xulq-atvorini ijobiy deb baholashi;
- 2.Frustratsiyaning mavjudligi;
- 3.Affekt yoki stress tipidagi emotsional qo'zg'alishning kuchliligi .

R. Kratchild va N. Livson agressiyaning bir-birini inkor etmaydigan va birday maqbul ikki tavsifini keltirganlar:

Birinchi, xulq-atvorning zohiriy (tashqi) alomatlariga asoslanadi: "Agressiya – kimgadir ziyon yetkazuvchi xulq-atvorning har qanday ko'rinishidir".

Ikkinchi, odamning botiniy (niyatleri) bilan bog'liq, ya'ni insonni harakatga undovchi kuchlar bilan mushtarak: "Agressiya – boshqa bir insonga ziyon yetkazishni maqsad qilib olgan har qanday xatti-harakatdir". Agressiyaning yuqorida zikr etilgan tavsiflariga monand tushunchalarga tayangan ko'plab psixologlar agressiyani mavjudotning yashash uchun kurash bilan bog'liq uzviy xususiyati deb hisoblaydilar.

Professor D.Bass taklif etgan ta'rifga ko'ra, "Boshqalar uchun xavf tug'diruvchi va ularga ziyon yetkazuvchi har qanday fe'l-atvor agressiyadir" deb ta'kidlaydi.

Shu bilan birga, bir necha taniqli tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan ta'rif esa quyidagicha: "U yoki bu harakatlar agressiya sifatida tasniflanishi uchun ular oxir-oqibat xafa qilish yoki haqoratlashga olib kelishi emas, balki xafa qilish va haqoratlarni maqsad qilib qo'yishi lozim" deb hisoblanadi.

Yana bir nuqtai nazar X.Zilman tomonidan bildirilib, unga ko'ra, "Agressiya o'zgalarga tan jarohati va boshqa jarohatlar yetkazish demakdir" deb ta'rif berilgan.

Shunday qilib, hozirda ko'pchilik psixologlar tomonidan "Agressiya – boshqa tirik jonzotga u buni istagan yoki istamagan vaziyatda haqorat yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qo'ygan, fe'l-atvorning har qanday shakli" degan ta'rif qabul qilingan. U agressiyaga emotsiya, motiv yoki ko'rsatma sifatida emas, balki fe'l-atvor modeli sifatida qarashni taqozo etadi. Bu muhim fikr ko'plab chalkashliklarni tug'dirdi.

Agressiv xulq-atvor yuzaga kelishida albatta, shaxsning temperamenti bilan ham bog'liq deb hisoblasak mubolag'a bo'lmaydi. To'g'ri, agressiv holatga har bir inson ya'ni har to'rt temperament vakili ham tushishi mumkin, lekin ular ichidan eng ko'proq moyil sifatida hech shubhasiz xolerik temperamentidagilarni ko'rsatish mumkin. Chunki, ushbu temperamentdagi shaxslar o'z navbatida, juda faolhayot kechirishga o'rganganlar, bir ishga

qiziqib ketsalar, oxirigacha yetkazmasdan qo'ymaydilar, ko'pincha ularning harakatlari va so'zlarida keskinlik, ba'zida esa qo'pollikni ham ko'rish mumkin, ular kutishni yomon ko'radilar. Shuningdek, xoleriklar olmasdan – olib qo'yadigan, gapirmasdan – baqiradigan, yurmasdan – uradiganlar toifasiga kiradilar. Ularning harakatlari fikrlaridan oldin yuradi, shuning uchun ham ular bir ishni qilib qo'yib, keyin fikr yuritadilar. Xoleriklarni vazmin, deyish noto'g'ri bo'ladi. Ular gohida xushchaqchaq va dilkash suhbatdosh, gohida esa serjahl va asabiy bo'ladilar. Ana shunday paytda ularni umuman gap tushuntirib bo'lmaydigan darajadagi odam qiyofasida ko'rishimiz mumkin. Boshqa tarafdin esa, xoleriklar fanlarni, bilimlarni oson o'zlashtiradilar. Ulardan yaxshi, qiziqarli fikrlar chiqadi, lekin bu fikrlarni hayotga tadbiiq qilish uchun ularga sabr-toqat yetishmaydi.

Shu bilan bir qatorda, eng kam agressiv holatga tushish ehtimoli bo'lgan temperament vakillari sifatida sangviniklarni aytish mumkin. Chunonchi, ular xoleriklardan farqli o'laroq, og'ir, vazmin va bosiq. Shuningdek, ular o'z his-tuyg'ularini, hayajonlarini (emotsiyalarini) jilovlashni ham, ortiqcha asabiylashmaslikni ham yaxshi uddalaydilar. Sangviniklarni yangi sharoitga tez ko'nikadigan, odamlar bilan darhol til topishib ketadigan, tavakkal qilishni yaxshi ko'radigan insonlar deyish mumkin. Ularning nutqlari tez, ovozlari baland bo'ladi va shu bilan birga ular mimika va imo-ishora bilan gapiradilar. Sangviniklarning didlari hamda qiziqishlari tez-tez o'zgarib turadi. Bir ish bilan doimiy shug'ullansalar, bu ishdan tez zerikadilar va o'zlariga boshqa mashg'ulot topishga harakat qiladilar.

Shunday qilib, agressiya bu har bir shaxsda bor holat, lekin ayrimlarda agressiv holatga tushishga moyillik yuqori shuning natijasida boshqalarga nisbatan ma'lum vaqt davomida tajovuzkor bo'lib qoladi. Bu esa o'z navbatida shaxsining temperamenti hamda obyektiv omillar bilan ham bog'liq.

Ko'plab o'tkazilgan tadqiqotlarlar davomida hamda o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlar natijasiga ko'ra, quyidagilarda IIO xodimlarining agressiv holatlarni namoyon etish ehtimoli mavjud:

me'yoridan ortiq ish hajmini yuklatilishi yoki uning xizmat vazifasiga kirmaydigan topshiriqlarning rahbarlar tomonidan berilishida;

mehnat shartnomasiga zid tarzda, belgilangan normal ish vaqtidan ko'p ishlashga majburligi yuzasida;

ayrim huquqiy ongi va huquqiy madaniyati past fuqarolar bilan bo'lgan muloqotda kelib chiqadigan tushunmovchiliklarda;

ish faoliyatini olib borish joyidagi kollektivning yaxshi bo'lmagan muhitda shakllanayotganligida;

xodimning shaxsiy hayoti bilan bog'liq muammolar yuzaga kelganda ya'ni stress yoki depresiya holatida bo'lganda;

xodimning oilasidagi mavjud nizoli vaziyalarda;

xodimning rahbari tomonidan kunlik o'tkaziladigan majlislarda o'z qo'l ostidagi shaxsiy tarkibga nisbatan nosamimiy munosabatda bo'lishida;

xodimning samarali ish faoliyatiga yarasha rag'batlantirishning mavjud emasligidadir.

Xodim yuqoridagi holatlar natijasida hayotga bo'lgan qiziqish yo'qolib, kasbiy zo'riqishga uchraydi, agar agressiv holatga tushishga moyil bo'ladigan bo'lsa shu paytning o'zida o'zining agressivligini odatiy va yashirincha shakllarda ko'rsatadi. Odatiy shaklda quyidagicha tarzda oshkor qiladi: nizo chiqarish; bosim o'tkazish; majburlash; tilining yomonligi bilan haqoratlash; negativ baholash; hamla qilish yoki jismoniy kuchni qo'llash bo'lsa, yashirincha shaklda esa aloqadan qochish, kimgadir zarar yetkazish maqsadida befarqlik, o'ziga ziyon yetkazish va o'z joniga qasd qilish kabilarda o'z aksini topadi.

IIO xodimlarining agressiv holatlarini psixoprofilaktikasiga to'xtaladigan bo'lsak, birinchi navbatda, agar agressiv holatga tushishga moyil xodim bo'lsa, albatta psixolog kuzatuvidan o'tish kerak va zarur muolajalarni qabul qilishi lozimdir. Shu bilan bir qatorda, agressiv holatga tushishga moyil bo'lgan xodimlar bilan psixolog tomonidan olib boriladigan suhbatlarda hodimga u uchun eng muhim va aziz bo'lgan oilasi haqida har bir bosayotgan qadamida o'ylashi zarurligi hamda oqibati faqatgina xodimning o'ziga emas balki uning oila a'zolariga ham daxli borligini tushuntirish lozim bo'ladi.

Ikkinchidan, agar xodim agressiv holatga tushgan vaqtida uni ko'pincha o'zini boshqarish orqali agressiv holatdan chiqib ketishi ma'qul hisoblanadi. Misol uchun, xodim agressiv holatga tushdi va undan chiqib ketishning eng oson yo'li sifatida nafas olib chiqarish mashqi hisoblanadi. Bunda, chuqur nafas olinadi, ma'lum vaqtgacha ushlab turilib, keyin asta-sekin qo'yib yuboriladi. Bu mashqni to'rt-besh marotaba takrorlanadi, shundan so'ng esa juda samarali natijaga erishiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har bir xodim jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, bilimli, o'z kasbini ustasi, vatanparvar, xalqparvar, mehnatkash, adolatli bo'lgani bilan zamon talabiga javob beradigan kadr bo'la olmaydi, hozirgi davr har bir xodimdan ruhan sog'lom bo'lishni hamda har bir fuqaroning yoshi, jinsi, xarakteri, temperamentiga qarab unga muomala qilish zarurligini ko'rsatadi. Ya'ni, shaxs psixologiyasini yaxshi bilish kerakligini namoyish etadi. Ammo, agar xodimlar ruhan sog'lom bo'lmas ekan ya'niki har xil turdagi noodatiy vaziyatlar sabab stress, depressiya, frustratsiya va agressiv holatga tushishar ekan fuqarolarga yaqin ularning dardini seza oladigan xalqchil tuzilmaga aylanish ehtimoli yo'qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi “Ichki ishlar organlarining xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-10-son Qarori.
3. Tohirova X.Z. “Agressiya va agressiv xulq-atvorning turli shaxs nazariyalaridagi talqini”-Ilmiy maqolasi: “Science and education scientific journal”-Aprel, 2022 yil.
4. https://ru.wikipedia.org/wiki/Агрессивное_поведение.
5. <https://www.samdu.uz/uz/news/21966>